



JAHON ILM-FANIDA EKOLOGIK XAVFSIZLIK MUAMMOLARINI O‘RGANISH TENDENSIYALARI

Muxtarova L .A.

*Termiz davlat pedagogika instituti
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tayanch so‘zlar: ekologik ta‘lim, ekologik madaniyat, ekologik xavfsizlik, atrof-muhit, tabiiy fanlar, tabiiy savodxonlik.

Ключевые слова: экологическое образование, экологическая культура, экологическая безопасность, окружающая среда, естественные науки, естественная грамотность.

Key words: environmental education, environmental culture, environmental safety, environment, natural sciences, natural literacy.

Kirish. Jahon ilm-fanida ekologik muammolar global muammoga aylandi. Shu bois, nafaqat bir-ikkita davlat, balki bizni o‘rab turgan dunyo muvozanati haqida o‘ylayotgan ko‘plab davlatlar ham ushbu muammoni hal qilishga e‘tibor qaratgan. Bugun dunyo bo‘ylab keng tarqalayotgan ekologik inqiroz va muammolar tabiatga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, unga e‘tiborni kuchaytirish zarurligini bildiradi. Xususan, bu muammoni hal etish O‘zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Dunyo xalqlari taraqqiyotining hozirgi bosqichida insoniyat uchun ekologik xavfsiz makonda yashash masalasi tobora dolzarb muammoga aylanmoqda. Ona sayyora muhitini bulg‘ayotgan ekologik xavf, “Tabiat-jamiyat-inson” munosabatlarining buzilishi yer yuzidagi barcha xalqlarni bu haqda chuqurroq o‘ylashga majbur etmoqda. SHu jihatdan olganda, bugungi kunda har bir o‘quvchining ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo yangi tendentsiyalar orqali yuksaltirib borish davr talabi. Xavfsizlikni global ekologik muammolardan biri sifatida tadqiq etish, uning mazmun-mohiyatiga tahliliy yondashish, o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib berish hamda ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning to‘laonli sub’ekti sifatida ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan izchil ekologik



siyosat yuritmoqda. Zero, “Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko‘rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e’tiborga molik” [1].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.09.2020 yildagi 541-son Atrof-muhitga ta’sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi Qarorida “Ekologik xavfsizlik talablaridan: tabiat in’omlaridan oqilona foydalanishga, atrof-muhit va fuqarolar sog‘lig‘iga salbiy ta’sirning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar, atmosfera havosiga chiqariladigan tashlanmalar hamda oqova suvlarning kutilayotgan tarkibi va hajmi, hosil bo‘ladigan chiqindilar morfologiyasi va hajmi, shuningdek, ularning atrof muhitga salbiy ta’siri va ularni kamaytirish usullaridan iborat” deb ko‘rsatilgan [3]. Qarorning mazmun-mohiyati boshlang‘ich ta’limdan boshlab ekologik madaniyatini shakllantirish, ularda ekologik jihatdan eng kam xavf tug‘diruvchi materiallardan, mahsulotlardan, kimyoviy moddalardan foydalanishni ta’minlash hamda atrof-muhit muhofazasi bilan aloqador ishlarni bajarishning xavfsiz ekologik tizimini takomillashtirish muhimligi ko‘rsatilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ekologik ta’lim-tarbiya va madaniyatni shakllantirishning ayrim pedagogik jihatlari E.O.Turdiqulov, B.X.Xodjayev, Yu.G‘.Mahmudov, X.J.Xudayqulov, N.J.Isakulova, X.B.Norbutayev, Sh.L.Maxmudova, V.N.Sattorov, Ye.B.Aydarov, U.G.Saidova, A.R.Malikova, M.K.Shirinov, N.A.Mirzayeva, G.A.Ismoilova, A.Yu.Kuchkinov, G.I.Qosimova, L.M.Abdunazarov, I.X.Ayubovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘rganilgan.

Jahon ilm-fanida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari Meadows Dennis L., Monica Green, Irina Katane, Meadows Donella H., Behrens W., Brennan Andrew, Davidson Stewart, Bastedo Jamie, Burdon-Sanderson kabi olimlarning izlanishlarida o‘rganilgan, Pirages Dennis, King Gary, Westing Arthur, Michael Sarah, King Alexander, John Pezzey, Stewart Franceslarning tadqiqot ishlarida ekologik xavfsizlikning antropologik xosliklari ochib berilgan.

Inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarda jiddiy o‘zgarishlar, insonni tabiat ustidan hukmronlik qilishga intilishi, “muvozanat barqarorligi” kontseptsiyasining muomaladan chiqib ketishi oqibatida sayyoramizda inqirozli holatning kelib chiqishi hamda jahon tsivilizatsiyasiga bo‘lgan tahdid borgan sari ortib bormoqda. Bugungi kunda “ekologik ta’lim” va “ekologik madaniyat” yer yuzidagi tsivilizatsiyani saqlab qolishi mexanizmlarni ishlab chiqish mumkin bo‘lgan omillardan biridir. Bu esa, ekologik inqiroz muammosiga “ekologik ta’lim”ni safarbar etish, davlat va jamiyatning mazkur sohadagi qonunchilik loyihalarini qayta ko‘rib chiqish hamda insoniyat manfaatlariga muvofiqlashtirishni taqozo qiladi.

BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi o'z rezolyutsiyasida birinchi marta insonning toza atrof-muhitga bo'lgan huquqini tan oldi. Mishel Bachelet uchta global tahdid haqida gapirdi: iqlim o'zgarishi, ifloslanish va atrof-muhitning degradatsiyasi, salomatlik va kelajak avlodlar uchun ekologik xavflarsiz toza tabiiy muhitni saqlashning ahamiyati muhimligini asosladi.

AQSH va rivojlangan G'arb mamlakatlarida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ekologik muammolar yechimiga nisbatan skeptik-pessimistik qarashlar shakllandi. Bunda bir-biriga zid qarashlar shakllangan bo'lsada, biroq mavjud global muammolar tahdididan insoniyatni ogoh etishi amaliy ahamiyatga ega.

Nemis faylasufi E.Hanke insoniyat tarixida ilk bor yer yuzidagi hayot nishonalarini yo'q qilishga qodir kuch-qudratga ega bo'lganligini ta'kidlab: "Atrof-muhit muammolarining avj olishi ikki muqobil imkoniyatning mavjudligi: "yoki halokat", "yoki najot" dan iborat, zero, gap bizning muammoni qay darajada anglab yetishimizda" [4]. "Rim klubi" a'zolaridan Forrester, Jay W. (AQSH), Meadows Donella (AQSH), Falk R. (AQSH), Ya.Tinbergan (Gollandiya), King Alexander (Britaniya), Peccei A. (Italiya)lar ham mazkur fikrga o'z munosabatini bildirganlar.

Demak, global ekologik muammolar sharoitida odamlarga tabiatni himoya qilishni bolalikdan o'rgatish kerak, chunki atrof-muhit bilan bog'liq ko'plab qiyinchiliklar hech bir insonni chetlab o'tmaydi. Qabih kimsalarning qilgan mudhish xatosi tufayli sodir bo'layotgan ekologik falokat havo va suvning ifloslanishi, global isish, maishiy chiqindilarning tabiatga chiqarilishi, kislotali yomg'ir va issiqxona effekti, o'rmonlarning yo'q bo'lib ketishi muammosini anglash uchun ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va "zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak".

Sodir bo'layotgan global isish va unga hamroh klimatologik o'zgarishlarning yaqin kelajakda jiddiy salbiy ekologik oqibatlariga olib kelish ehtimoli mavjud. Issiq davrlar soni oshib borishi suv zahiralari shakllanishi tsikllarini o'zgartirmoqda, ekstremal ob-havo hodisalari, uzoqroq davom etadigan qurg'oqchilik va kuchli yog'ingarchilikka olib kelmoqda, ekotizimlarda suv oqimining tabiiy mo'tadil boshqarilishida omil bo'lgan muzlik va qor zaxiralariga harorat oshishining salbiy ta'siridan vayronagarchiliklar sodir bo'lishi kutilmoqda.

Mazkur muammoning yechimini bevosita insonning atrof-olamga bo'lgan munosabatini o'zgartirishdan izlash kerak. Xususan, sayyoramizning halokatli holati haqida Buyuk Britaniyadagi Greenpeace tashkilotining Okeanlarni muhofaza qilish dasturi menejeri Uill Makkallunning "Dunyoni qutqarish" bo'yicha ko'rsatmalari muhim. Bunda, avvalo, tabiatni o'rganadigan soha olamiga murojaat



qilinib, uning qonuniyatlariga amal qilishimiz muhim, tabiatdagi o'zgarishlar tirik organizmlarning yashash muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

H.Artur Uestingning atrof-muhit va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash uchun inson ekologik zahiralardan oqilona foydalanishi muhimligini aytib: "Kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirishida atrof-muhitga ziyon etkazmaslik qobiliyatini rivojlantirish kerak" degan fikrlari o'rinli [6]. Pirages Dennis, Theresa Manleylar fikricha: "Atrof-muhit xavfsizligi, tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish tendentsiyalari tobora kuchayib borayotganligi inson xavfsizligi masalasi hamisha dolzarbligini ifodalaydi" [5]. Shu munosabat bilan barqaror rivojlanish sohasidagi xalqaro institutning ta'kidlashicha, xavfsizlikni barqarorlashtirishdan maqsad "atrof-muhit va tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish orqali inson xavfsizligini global darajaga olib chiqish zarur". Zero zamonaviy energiya tejoychi texnologiyalar va muqobil energiya manbalarining kashf etilishi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi ijobiy mazmun-mohiyatga ega bo'lsada, buning ortida minglab salbiy oqibatlar borligi tabiiy jarayonlarga ruxsatsiz aralashuvlar atrof-muhit uchun jiddiy tashvish tug'dirdi.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ekologik madaniyatni boyitish nabotot olamiga ziyon yetkazmaslik, uni ko'z qorachig'idek avaylab-asrash, tabiat ehsonlaridan omilkorona foydalanish ko'nikmalari ushbu belgilangan me'yoriy talablarni o'zlashtirish, bajarish va baholashda ko'rinadi. Xususan, inson hayoti uchun iste'molga yaroqsiz, xavfli ifloslantiruvchi moddalar va chiqindilarni tashlab yuborish, tarqatish uchun ichki taqiqlarni ishlab chiqish, tabiiy gaz, suv va elektr energiyasini iste'mol qilish hajmiga ham ehtiyot bo'lish kerak. Bu ekologik xavfsizlikni ta'minlash va tabiiy muhitni saqlash yo'lidagi dastlabki qadamlar bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, ekologik muammolarni hal etishda tejamkor, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, o'quvchida ekologik madaniyat, atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lish, tabiat ne'matlarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish antropogen ta'sirlarning oldini olishda asosiy omillardan bo'lib, bunda ekologik ta'limning ahamiyati beqiyos, chunki, tabiat in'omlaridan omilkorona foydalanish orqali atrof-muhit va ijtimoiy hayot uyg'unligini ta'minlash asosida barqarorlikni saqlashda muhim o'rin egallaydi.

Maqola muammoga doir ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish, ekologik bilim berishda "oddiydan murakkabga", "uzviylik va uzluksizlik" kabi pedagogik tamoyillarga tayanish asosida yoritilgan bo'lib, o'quvchilar ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan.

Tahlil va natija. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ekologik madaniyatni boyitish nabotot olamiga ziyon yetkazmaslik, uni ko'z qorachig'idek avaylab-asrash, tabiat ehsonlaridan omilkorona foydalanish ko'nikmalari ushbu belgilangan me'yoriy talablarni o'zlashtirish, bajarish va baholashda ko'rinadi. Xususan, inson hayoti uchun iste'molga yaroqsiz, xavfli ifloslantiruvchi moddalar va chiqindilarni tashlab yuborish, tarqatish uchun ichki taqiqlarni ishlab chiqish, tabiiy gaz, suv va elektr energiyasini iste'mol qilish hajmiga ham ehtiyot bo'lish kerak. Bu ekologik xavfsizlikni ta'minlash va tabiiy muhitni saqlash yo'lidagi dastlabki qadamlar bo'ladi.

Ekologik xavfsizlik madaniyatini ekologik madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qiyoslash mumkin. Demak, o'quvchining ekologik xavfsizlik madaniyatiga oid bilim kompetentsiyasini egallanganligi uning atrof-muhitdagi tabiiy xavf-xatarlardan himoyalanih ko'nikmasini aks ettiradi.

Shu maqsadda biz tomondan taklif etilgan modelda o'quvchilar ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish bosqichlari, didaktik tamoyillar (shaxsga yo'naltirilgan, insonparvar, individual, sub'ektiv), tabiiy savodxonlik kompetentsiyalari (kontekst, bilim, munosabat), tabiiy-ilmiy kontekstlar (shaxsiy, mahalliy, global), ilmiy bilish turlari (fan mazmuniga oid, metodologik, epistemik), ekologik bilimlarni o'zlashtirishning kognitiv darajasi (yuqori, o'rta, quyi) vizuallashtirilgan ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan mexanizm aks ettirilgan.

Tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid g'oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog'liq muammolarni hal qila olishi tushuniladi.

Tabiiyot va geografiya sohalari mazmunidan kelib fanga oid tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetentsiyasi; geografik ob'ektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetentsiyasi; globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetentsiyasi; tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat umumiy kompetentsiyalari shakllantirilgan. O'quvchilar topshiriq kontekstida ifodalangan muammoli vaziyatni hal qilishda tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik kompetentsiyalarini namoyish etishlari kerak. O'quvchilarning tabiiy fanlarga qiziqishi, tadqiqot mavzusiga ilmiy yondashuvi, atrof-muhit muammolaridan xabardorligi va fan mazmuni bilan bogliq o'zlashtirgan bilimi tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligi darajasini belgilaydi.

Fanlararo aloqadorlik asosida o'qitish o'quvchilar tomonidan o'quv materialini idrok etish samaradorligini ta'minlash uchun turli xil ta'lim shakllarini talab qiladi. Fanlararo o'qitishning mazkur shakli bu o'quv jarayonini mavjud bo'lish yo'li, uning ichki mohiyati, mantiqi va mazmuni uchun qobiq. Ushbu jarayon



o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasi sifatida o'quvchi shaxsida tayanch va fanga oid kompetentsiyalari inobatga olindi.

Model DTS talablari asosida ishlab chiqilgan. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, baholashning mazmunli asosi tarkibiy qismlariga mos keladigan model quyidagi uchta asosiy qismlarga ajratildi: maqsadli, jarayonli va natijaviy blok.

Maqsadli blokda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo shakllantirish jarayoni definitsiyasi zamonaviy yondashuvlar asosida qiesiy tahlil qilindi. Ilmiy-nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etish maqsadida tadqiqot bosqichlari belgilandi. Tayyorlov bosqichi (tayyorgarlik ko'rish, qulay muhitni yaratish), tajriba-sinov bosqichi (diagnostik metodika, anketa so'rovnoma o'tkazish) va ma'lumotlarni qayta ishlash bosqichi (natijalarni qayta ishlash) mazmunida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi.

Jarayonli blok baholashdan o'tish bosqichlari ketma-ketligini belgilaydi hamda ekomazmundagi mavzularni fanlararo o'qitish metodikasi samaradorligi, shuningdek, ushbu bosqichda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni loyihalash, o'qitishning maqbul usul va vositalarini tanlash, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mahsuldorligini tashhishtashning yorqin ifodasi kuzatildi.

Tajriba-sinov jarayonida "Hayot qadriyatlarini", "Ekologik tasavvur", "Xavfsiz faoliyat", "Xavfsiz sog'lom ko'nikma" mazmunidagi diagnostik materiallar bilan boyitilgan metodika hamda anketa so'rovnomalardan foydalanildi. Suhbat natijasiga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining "Ekologik xavfsizlik" mazmunidagi mavzularni fanlararo aloqadorlik asosida birlashtirib o'qitish metodikasida uchraydigan murakkabliklarni aniqlash imkonini berdi. Diagnostik metodika natijalari tahlili orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyat mazmuni aniqlandi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan o'tkazilgan suhbatda fanlararo aloqadorlik o'rnatishda uchraydigan qiyinchiliklarni aniqlash imkonini berdi. Tajriba-sinov jarayonida fanlararo ekologik xavfsizlik madaniyati bo'yicha ma'lumotlar yig'ish hamda taklif etilayotgan metodikaning samara berishini isbotlash hamda taklif va tavsiyalar berish maqsadida olib borildi. Fanlararo ekologik xavfsizlik madaniyatini takomillashtirish jarayonida o'quvchilarda o'quv faolligining shakllanganlik darajasini o'quvchilarga tushuntirib berish muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

Taklif etilgan modelda o'quvchilar ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish bosqichlari, didaktik tamoyillar (shaxsga yo'naltirilgan, insonparvar, individual, sub'ektiv), tabiiy savodxonlik kompetentsiyalari (kontekst, bilim, munosabat), tabiiy-ilmiy kontekstlar (shaxsiy, mahalliy, global), ilmiy bilish turlari (fan mazmuniga oid, metodologik, epistemik), ekologik bilimlarni o'zlashtirishning



kognitiv darajasi (yuqori, o'rta, quyi) vizuallashgan ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyalash asosida aniqlashtirilgan.

O'quvchilar o'rtasida ekologik xavfsizlik madaniyatini diagnostik-baholash modeli asosida yaratilgan g'oya o'quvchi uchun uni o'z vaqtida tashxislash va shakllantirishning individual traektoriyasini qurish, ekologik muammolarning oldini olishga qaratilgan.

Bizning fikrimizcha ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo shakllantirishda o'quvchining olgan ekologik bilimlari asosida egallangan biror-bir faoliyat yoki harakat yangi sharoitlarda bajarish qobiliyatiga muvofiq bo'ladi.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyati o'quvchining atrofidaqilar va ta'lim faoliyati uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan ruhiy-madaniy olamini ifodalovchi yuksak onglilik va mas'uliyatni his etgan holda ekologik javobgarlik, qadriyatlarga hurmat va ehtiromni to'liq ifodalash, hayoti va o'z salomatligi borasida qayg'urish, inson faoliyatiga tahdid soluvchi xavfli omillarni bartaraf etishning maqbul vositasi sifatida atrof-muhit muhofazasida faol qatnashish, moddiy va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, uni e'zozlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o'z-o'zini anglash, inson-tabiati-jamiyat birligi, atrof-muhit va kelajak avlod hayoti hamda rivojlanishi uchun muhim bo'lgan ekologik qulay shart-sharoitlarni yaratish negizida shakllanadi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbatda fanlararo aloqadorlik o'rnatishda uchraydigan qiyinchiliklarni aniqlash imkonini berish bilan birga fanlararo ekologik xavfsizlik madaniyati bo'yicha ma'lumotlar yig'ish hamda taklif etilayotgan metodikaning samara berishini isbotlash hamda taklif va tavsiyalar berish maqsadida olib borildi. Fanlararo ekologik xavfsizlik madaniyatini takomillashtirish jarayonida o'quvchilarda o'quv faolligining shakllanganlik darajasini o'quvchilarga tushuntirib berish muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

O'quvchilar o'rtasida ekologik xavfsizlik madaniyatini diagnostik-baholash modeli asosida yaratilgan g'oya o'quvchi uchun uni o'z vaqtida tashxislash va shakllantirishning individual traektoriyasini qurish, ekologik muammolarning oldini olishga qaratilgan.

Bizning fikrimizcha ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo shakllantirishda o'quvchining olgan ekologik bilimlari asosida egallangan biror-bir faoliyat yoki harakat yangi sharoitlarda bajarish qobiliyatiga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, yuqoridagi ma'lumotlar, tahlillar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'quvchilarda ekologik xavfsizlik madaniyati o'quvchining atrofidaqilar va ta'lim faoliyati uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan ruhiy-madaniy olamini ifodalovchi yuksak onglilik va mas'uliyatni his etgan holda ekologik javobgarlik,



qadriyatlarga hurmat va ehtiromni to'liq ifodalash, hayoti va o'z salomatligi borasida qayg'urish, inson faoliyatiga tahdid soluvchi xavfli omillarni bartaraf etishning maqbul vositasi sifatida atrof-muhit muhofazasida faol qatnashish, moddiy va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, uni e'zozlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o'z-o'zini anglash, inson-tabiat-jamiyat birligi, atrof-muhit va kelajak avlod hayoti hamda rivojlanishi uchun muhim bo'lgan ekologik qulay shart-sharoitlarni yaratish negizida shakllandi.

2. O'quvchilarda olamning yaxlit manzarasi haqidagi ma'lumot va dalillarni ilmiy jihatdan majmuaviy talqin qilish, idrok va tasavvurlarini boyitish, o'z-o'zini anglash, mustaqil faoliyatini tashkil etish faoliyatiga yo'naltirilgan komponentlari, mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirildi.

3. O'quv-tarbiya jarayonida fanlararo aloqadorlik maqsadlariga erishish uchun tarbiya, ona tili va o'qish savodxonligi, tabiiy fanlar o'quv dasturlari hamda mavzularida didaktik aloqalar izchilligi o'rnatilgan, o'quvchilarda ekologik xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni hal qila olish qobiliyatlari shakllantirildi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF – 5712- sonli Farmoni. PF-5712-son 29.04.2019. (lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-son qarori. 434-son 27.05.2019. (lex.uz)
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.09.2020 yildagi 541-son Atrof-muhitga ta'siri baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risidagi qarori. 541-son 07.09.2020. (lex.uz).
4. Hanke E. Ins nachste Jahrhun dert: Was steht uns bevor? Leipzig ets, 1984.- Pp.7.
5. Pirages Dennis, DeGeest, Theresa Manley (2004). Ecological Security: An Evolutionary Perspective on Globalization. Rowman va Littlefield. - Pp. 59-60. ISBN 9780847695010.
6. UN Global Issues, Environment. he Brundtland Report, "Our Common Future". Inson xavfsizligi (wikidea.ru).
7. Mukhtarova L.A. Ways of formation of ecological culture in children of primary age // AJMR:Asian Journal of Multimensional Research Journal. Vol 10, Issue 4, April, 2021. - Pp 648-652. (Impact Factor 7.699).
8. Muxtarova L.A. Yoshlarda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga doir masalalarda innovatsion yondashuv. Ilim ham jamiyet. Илимий-методик журнал. - Нукус, 2020. 4-сон. - Б. 84-86 б.
9. Muxtarova L.A. Boshlang'ich ta'limda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning metodologik asoslari // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi ilmiy-nazariy jurnali. 2021, 12-сон. – B. 657-662.

РЕЗИОМЕ

Ushbu maqolada ekologik xavfsizlikning tuzilmasi va komponentlari ta'limiy sharoitda aniqlashtirilgan.

РЕЗИОМЕ

В данной статье определены структура и компоненты экологической безопасности в образовательной среде.

SUMMARY

This article defines the structure and components of environmental safety in the educational environment.